

**INTERNATIONAL CONFERENCE**  
**“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”**  
**September 25, 2025**

**XURSHID DO‘STMUHAMMAD HIKOYALARIDA QAHRAMON MILLIY  
HARAKTERINING NAMOYON BO‘LISHI**

*Qayumberdiyev Ramazon Muzaffar o‘g‘li*

*O‘zMU adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

*[ramazonq@yumberdi.gmail.com](mailto:ramazonq@yumberdi.gmail.com) +99897 578 09 61*

**Annotatsiya:** maqolada bugungi o‘zbek hikoyachiligidagi milliy harakterning namoyon bo‘lishi yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalari qahramonlari misolida yoritiladi. Zamonaviy hikoyachilikdagi kengayib borayotgan inson kechinmalari tasviri milliy asoslardan uzoqlashmagan holda ifodalanayotgan yozuvchi ijodi obyektga olingan. “Saf”, “HYUNDAI” va telpak” hikoyalardagi qahramonlar harakteri milliylik mezonida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** hikoyachilik, milliy harakter, qahramon kechinmasi, estetik asos, yozuvchi ideali.

**Abstrakt:** The article examines the manifestation of the national character in today's Uzbek storytelling using the example of the characters in the stories of the writer Khurshid Dostmuhammad. It focuses on the work of a writer who illuminates the image of man in contemporary storytelling. The characters of in the stories "Saf", "HYUNDAI" va telpak" were analyzed in terms of nationality.

**Key words:** storytelling, national character, participant's experience, aesthetic basis, ideal of a writer.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi qariyb yuz yildan ziyod umri davomida insonning o‘zini anglashini yoritishga, ichida yashayotgan o‘zlikni ifodalashga harakat qilmoqda. Albatta, bu janrning shakllanishi, taraqqiyotida ko‘plab adiblarimizning adabiy-ijodiy tajribalari to‘planib, bugungi qiyofasiga ega bo‘ldi. Hikoya prozaning eng kichik janri bo‘lsa-da uning bag‘rida juda ulkan dunyoqarash, hayotiy tajriba yashaydi.

Hikoyachilik bu shunchaki ma’lum sujetga asoslangan voqelikni yozish emas, balki aynan shu sujet orqali o‘quvchiga ezgulik, ibrat, saboq ulashishdir. O‘zbek xalqi qadim-qadimdan bolalarga ibratomuz hikoyalar, ertaklar aytib ularga axloqni, odobni o‘rgatib kelgan. Shu sababdan hikoyalarda ham bosh qahramonlar butun millat tafakkuriga ta’sir etadigan xususiyatlarni ifodalashi, o‘z axloqi, zakovati, xayoli-yu hayoti bilan o‘rnak bo‘lmog‘i lozim. Istaymizmi yo‘qmi, har qanday badiiy asarda tasvirlanayotgan makonning va zamonning elementlari aks etadi. Asar yozilgan makondagi muhit, kolorit bir qarashda ko‘zga tashlanadi. Ba’zi namunalar esa shunday milliylik asosiga qurilgan bo‘ladi, ya’ni qahramonning harakteri, yuz tasviri, so‘zlash usuli, shevasi, mimikasidan tortib u bilan bog‘liq har bir tasvirdagi detallargacha milliylikdan “so‘zlaydi”.

Zamonaviy hikoyachilik haqida Adabiyotshunos U. Normatov qayd qilganidek: “Eng muhimi ularda so‘nggi yillar adabiyotimizda, qolaversa, jahon adabiyotida ham tansiq bo‘lib turgan, o‘zida yuksak ideallarni tashuvchi, idealga intiluvchi qahramonlar birin-ketin bo‘y ko‘rsatayotir” (Normatov U. 2000, 112-bet) . Shu nuqtai nazardan olib qarajak, hozirgi adabiy jarayonda ham sujet va g‘oyasi pishiq, hayot haqiqatini ochadigan, mazmun va uslubi o‘quvchini qoniqtira oladigan hikoyalarni X. Do‘stmuhammad, U. Hamdam, I. Sulton, N. Eshonqul, A. Yo‘ldoshev, N. Jaloliddinov, Z. Qurolboy qizi, S. Vafo kabi ijodkorlar yozib, adabiyot ahliga havola qilmoqda. Yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad ijodida asosiy e’tiborni bosh qahramon kechinmalariga, harakteri va tabiatidagi

milliylik unsurlarini ochishga qaratishini kuzatishimiz mumkin. Yozuvchining yuksak badiiy saviyada yozilgan va adabiyot ahliga yaxshi tanish barcha hikoyasida o‘ziga xos milliy xarakterni yoritib beradi. Milliy harakter ichki kechinmalar orqali maydonga chiqadi. Qahramon sharqona ahloqdan, milliy g‘ururdan, sadoqat, oila, qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘ oqibatidan chetga chiqmaydi.

X. Do‘stmuhammad hikoyalarida qishloq odamlarining sodda, o‘zbeki harakteri ko‘zga tashlanib turadi. Adib bu xususiyatni personajlar nutqida, fe‘l-atvorida, yurish-turish, ko‘rinish-kiyinish usullarida ham ko‘rsatishga harakat qiladi.

“HYUNDAI” va telpak” hikoyasida Izzatali aka timsolida biroz anqov, dalli-g‘ulli harakterli personajning telpagini yo‘qotish voqeasi tasvirlanadi. To‘yga kelayotib qo‘shnisi Qambarboyning mashinasida qoldirgani va mashinani o‘g‘irlab ketishgani hikoya qilinadi. Mashina bilan yo‘qolgan telpak Izzatali akaning yagona telpagi edi. Bu yil qish kelganida ham bosh kiyimga yolchimay do‘ppida yurgani va qo‘shnining qishgacha yangi moshina olgani kontrast usulda yoritilgan. “Moshina kelibdi” degan xabardan so‘ng Izzatali akaning telpagidan umidvor bo‘lib yugurishi harakteridagi soddalikni, yo‘qchilik sabab diydasi siniqqan oqko‘ngil o‘zbek qiyofasini ochib beradi. Xotining “– o‘zingiz o‘larday lallaygansiz! O‘shanda pishiqroq bo‘lganingizda... Boshingizdagi telpakni qo‘yningizga tiqi-i-ib kirganingizda birov oshdan quvib chiqararmidi?” (Do‘stmuhammad X. 2006, 418-bet) degan diydiyolarida gapga chechan, betgachopar harakterli ayol obrazini yoritadi.

Yozuvchi inson tabiatini, undagi milliylikni ochib berishda ko‘p o‘rinda yoshi katta insonlar tasviriga murojaat qiladi. “Saf” hikoyasida qo‘llarini orqasiga qilib yuruvchi Rayim chol mahalla erkaklari oshga chiqqanda doim yo‘lboshi bo‘ladi. Otaning shevaga xos nutqida, doim takrorlab yuruvchi o‘zigina ishlatadigan noodatiy so‘zida,

Hikoyadagi mahalla oshiga chiquvchilarning safga tuzilishi, bu safning yoshga qarab o‘rin almasha borishi va bu jarayondagi turli voqea-hodisa, gurunglar milliy mentalitetga xoslikni namoyon qiladi. Rayim chol dastlab otasi undovi bilan safga qo‘shilganda oxirida turardi, so‘ng mahalla yoshlari qo‘shilishi bilan o‘rtaga, keyin oldinga siljiy boshlaydi. Oxirida Yoshi ulug‘i o‘zi bo‘lib qoladi va safga yo‘lboshilik qiladi. Bu bilan yozuvchi qishloqning mana shu o‘ziga xos odati orqali umrni tasvirlaydi aslida. “Rayim chol safning oxirini hayotning boshlanishiga, qatorning boshini umrning intihosiga, binobarin, safni hayotning o‘ziga qiyoslaydi” (Do‘stmuhammad X. 2006, 418-bet) degan jumlada yozuvchi o‘z qarashini oydinlashtiradi.

Yozuvchi hikoyalardagi mahalla oshiga borish, yig‘in, to‘y tafsiloti, aza marosimlarida milliy urf-odat, an‘analar bilan qahramonlarning o‘zbeki harakterlari, milliy qiyofasi ochilib boradi. Yuqorida aytib o‘tilgan “Saf” hikoyasida mahalla ahlining oshga chiqishdagi Yoshi kattalarga bo‘lgan munosabat, tartib-yo‘riqlari tasvirlansa, “HYUNDAI” va telpak”da qo‘shnisi bilan to‘yga chiqqan Izzatali akaning hayotidan bir lavha beriladi. “Chimboyko‘chalik qo‘shnilar” hikoyasida bir dasturxon atrofida yig‘ilgan qo‘shnilar va mehmonlarning hazilomuz gurungi, o‘tgan-ketgandan, boy-kambag‘aldan, kundalik turmushdagi turli vaziyatlardagi tanish-notanishlar haqida qurgan suhbat bayon qilinadi. Barchasida umumiy xususiyat milliy koloritning bo‘y ko‘rsatishi. Qahramonlarning turli hodisalarda, tashvishlar-u xursandchilikda namoyon bo‘ladigan milliy harakteri ochib beriladi.

Bugungi o‘zbek nasrida milliy qadriyatlarni qaytadan yangilash, adabiyotning estetik asoslarini mumtoz badiiy merosimiz bilan, xalq hayoti va ijodi bilan bog‘liqlikda tasvirlash X. Do‘stmuhammad

**INTERNATIONAL CONFERENCE**  
**“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”**  
**September 25, 2025**

ijodining xarakterli xususiyatiga aylangan. Hikoyalarida qahramonlarning hayotga, voqelikka munosabati yozuvchining individual idealini namoyon qilib, nasrimizni boyitib bormoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Дўстмуҳаммад, Х.,(2006) Беозор кушнинг қарғиши. Ҳикоялар. ШАРҚ, 512 bet. Toshkent
2. Normatov, U., (2000) Umidbaxsh tamoyillar. “Ma’naviyat”, 112 bet. Toshkent
3. Xudoyberdiyev, E.,(2007) Adabiyotshunoslikka kirish. Iqtisod-moliya. 304-b. 203-bet. Toshkent
4. Solijonov, Y., (2020) Hozirgi adabiy jarayon: o‘quv qo‘llanma.“Innovatsion ziyo”, 63 bet. Toshkent